

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN TASHKIL ETILADIGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATNING NAZARIY ASOSLARI

Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna

Navoiy davlat universiteti

Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisdá maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni, shakl va metodlari tahlil qilinadi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishida oilaning, tarbiyachining hamda ijtimoiy muhitning o'ri yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim islohotlari sharoitida maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, tarbiya, kommunikatsiya, shaxs rivoji, ijtimoiy muhit.

Annotation. This thesis analyzes the content, forms, and methods of socio-pedagogical activity with preschool children. The role of the family, educator, and social environment in the formation of a child as a person is highlighted. Also, in the context of modern educational reforms, ways of effective organization of socio-pedagogical activities in preschool educational institutions will be considered.

Keywords: preschool age, socio-pedagogical activity, upbringing, communication, personal development, social environment.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabr kuni "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori maktabgacha ta'lim muassasasining faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilib kelmoqda. Bu qaror asosida yosh avlodning maktabgacha ta'lim muassasalaridan to oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o'rganishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Ma'lumki, inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni angelaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasalarida mazkur faoliyat davom ettiriladi. Shu ma'noda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat, bu faoliyatning asosida o'sib rivojlanib kelayotgan farzandlarning sog'lom va baquvvat bo'lib o'sishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi davr (3–7 yosh) bolaning shaxsiy rivojida eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu davrda bolalar atrof-muhitni faol idrok etadi, nutq, muloqot, o'z-o'zini anglash jarayonlarini o'zlashtiradi, mustaqil faoliyatga intila boshlaydi, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qoidalarni o'zlashtiradi. Bu borada ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan barcha

bolalar uchun ijtimoiy adaptatsiya muammosi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bolaning ko'nikish imkoniyatlarini oshirish, uning ijtimoiy aloqalarini kengaytirish bola shaxsining shakllanishi uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etmokda.

Ijtimoiy pedagogikada bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga ko'nikish darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonlarga asoslaniladi: yengil adaptatsiya, o'rta adaptatsiya va og'ir adaptatsiya.

1. Yengil adaptatsiya - bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Bola MTM (maktabgacha ta'lim muassasi)ga qatnay boshlaganidan so'ng bir oy o'tgach, o'zini me'yorda tuta boshlaydi.

2. O'rta adaptatsiya - bolaning yurish-turishi yoki emotsional xolatidagi o'zgarishlar 15-30 kun ichida me'yoriy holatga kaytadi. Agar avval unda ozish kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik u o'z vaznini tiklab oladi. MTMga qatnay boshlashidan bir oy mobaynida bir marotaba yengil kasallikka chalinishi va 7-10 kun MTMga kelmasligi mumkin.

3. Og'ir adaptatsiya - shunda namoyon bo'ladiki, bolalarda tez-tez qaytadan kasal bo'lish kuzatiladi va u kasalliklar ba'zi hollarda jiddiy tus olishi mumkin (bronxit, pnevmoniya). Bu holatda adaptatsiya bir oydan ziyod vaqtga cho'ziladi, rivojlanish va sog'liq ko'rsatkichlarida noxush holatlar ham namoyon buladi. Adaptatsiyaning jarayonining og'ir o'tishiga oilaviy tarbiyaning quyidagi kamchiliklari ham sabab bo'lishi mumkin: noto'g'ri ovqatlanish; salbiy odatlar; yoshiga mos kelmaydigan ko'nikmalar.

Bola uchun o'yin, muloqot va kuzatish asosiy ijtimoiy tajriba manbai sanaladi. Shuning uchun ijtimoiy-pedagogik faoliyat ularning tabiiy ehtiyojlari – o'yin, muloqot va ijodkorlik orqali tashkil etilishi zarur.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat — bu bolani jamiyatga moslashuvchan, muloqotga kirishuvchan, axloqiy barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Pedagog bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy vositachi va tarbiyaviy yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning shakllari quyidagilardir:

- O'yin faoliyati (rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, interaktiv mashg'ulotlar);
- Ijodiy faoliyat (rasm chizish, qo'shiq aytish, sahnalashtirish, qo'g'irchoq teatri);
- Kommunikativ mashg'ulotlar (suhbat, hikoya tuzish, juftlikda ishlash);
- Jamoaviy tadbirlar (bayramlar, kichik loyihalar, ekologik aksiyalar).

Ushbu shakllar yordamida bola jamiyatdagi o'rnini anglaydi, o'z fikrini ifoda etishga o'rganadi va tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlar o'rnatadi. Metodlar esa:

- suhbat va muhokama;
- kuzatish;
- rolli o'yinlar;
- muammoli vaziyatlarni yechish;
- rag'bat va baholash.

Bola tarbiyasida oila – birlamchi ijtimoiy muhit, bog'cha esa ikkinchi ijtimoiy makon hisoblanadi. Shuning uchun pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun oila bilan muntazam aloqa o'rnatish zarur. Bu davrda ota-onalar va pedagoglarga bolaning gap-so'zlariga tinglashlari, bola bilan bilan tez-tez muloqot qilishlari, agar bola duduqlansa, unga

shoshilmasdan dona-dona qilib gapirishga undashlari, hikoyalar o'qib berishlari, ularni turli o'yinlarga va yangi narsalarni o'zlashtirishga rag'batlantirishlari zarur. Bolalar dastlabki ijtimoiy muomala ko'nikmalarini tevarak-atrofdagilarni kuzatib, ularga taqlid asosida hosil qiladilar hamda qanday xulq-atvorlar maqbul, qaysilari nomaqbul ekanini bilib oladilar. Mazkur shakldagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Pedagog bu jarayonda bolaning shaxsini chuqur tushunadigan, o'z faoliyatini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida olib boradigan mutaxassis bo'lishi zarur. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning samaradorligi — oilaviy, ta'limiy va ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi.

Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni zamonaviy metodlar, raqamli texnologiyalar va insonparvar yondashuvlar asosida tashkil etish — yosh avlodni barkamol, ijtimoiy faol shaxs sifatida voyaga yetkazishning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. T. 2009
2. Mavlonova R.A., Voxidova N.X., Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Istiqol 2009.
3. Salieva Z. Ijtimoiy pedagogika. O'quv qo'llanma. T.: Adabiyot uchqunlari. 2019
4. Галагузова М.А. История социальной педагогики. Учебное пособие. М. Владос. 2000.
5. В. Утёмов, М. Зиновкина, П. Горев. Креативная педагогика. – М., "Юрайт". 2019
6. To'xtayeva, G. "Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihatlari." *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2023.
7. Sattorova, M. "Bola shaxsining ijtimoiylashuvi jarayonida tarbiyachining roli." *O'zbekiston ta'limi*, 2022.
8. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2019.
9. Vygotskiy, L.S. *Bola psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi*. Moskva, 1982.
10. Ziyonet.uz – elektron ilmiy resurslar portali.